

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA
QO'SHIMCHA TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISH ORQALI BOLALARNI
AQLIY VA JISMONIY RIVOJLANTIRISH

Baxrillayeva Moxichehra Raxmatillayeva

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti nodavlat ta'lismuassasasi Samarqand kampusi
assistanti

moxichehrabaxrillayeva7@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagiga bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanish jarayonida qo'shimcha ta'limga mashg'ulotlarini tashkil etishning o'rni va ahamiyatli tomonlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Maktabgacha ta'limga tashkilotlarida ota onalar homiyligi asosida jismoniy faoliytki rivojlaniruvchi qo'shimcha ta'limga xizmatlarini tashkil etish va uning bola jismoniy rivojlanishidagi o'rni haqida muhokama boradi.

Аннотация: В статье подробно рассматривается роль и значение организации дополнительной образовательной деятельности детей дошкольного возраста в процессе психического и физического развития. До конца учебного года в образовательных организациях обсудят создание дополнительных образовательных услуг, пропагандирующих физическую активность на основе материнства родителей и его роли в физическом развитии ребенка.

Annotation: This article details the role and importance of organizing additional educational activities for preschool-age children in the process of mental and physical development. Up to the end of the school year, educational organizations will discuss the establishment of additional educational services that promote physical activity based on parental maternity and its role in the physical development of a child.

Kalit so'zlar: rivojlanish, jismoniy faoliy, sport, karate, takevando, rivojlanish sohasi, to'garak.

Ключевые слова: развитие, физическая активность, спорт, каратэ, таеквондо, развитие, группа.

Keywords: development, physical activity, sports, karate, takevando, development, group.

Maktabgacha ta'limgoshi inson shaxs sifatida rivojlanishining, ta'limga va tarbiya jarayonining dastlabki bo'g'ini ya'ni debochasi hisoblanadi. Oiladan o'rgangan tarbiyani maktabgacha ta'limga bilan birgalikda olib borilsa bola har tomonlama yetuk, bilimli, tarbiyalı bo'lib yetishadi.

Mana shunday bolaning jismoniy rivojlanishi yaxshi bo'lishi uchun maktabgacha ta'limga tashkilotlarida davlat xizmatlaridan tashqari, qo'shimcha pullik davlat xizmatlarini ham yo'liga qo'yish amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Maktabagacha ta'limgazining 2018-yil 13-dekabrda "Davlat maktabgacha ta'limga tashkilotlarida qo'shimcha pullik ta'limga tarbiya xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini tashkil etish bo'yicha tarkibi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi. Bunda qanday qo'shimcha ta'limga xizmatlar ko'rsatish mumkin? Xususan;

-dam olish kunlari va maktabgacha ta'limga tashkilotida ish kuni yakunlangandan so'ng bolani parvarishlash, unga qarab turish, uni o'qitish;

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

-maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv dasturidan tashqari sport sog'lomlashtirish (karate, takevando, suzish, shaxmat, shashka, gimnastika, massaj va boshqalar) badiiy estetik (xor, raqs, tasviriy san'at) fanlar bo'yicha (chet tillari, aqliy arifmetika, matematika, informatika va boshqalar);

-to'liq quvvat bilan ishlamayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini yo'lga qo'yish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish bola rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Gimnastika to'g'ri qomatni tarbiyalashga ta'sir etib, nafas olishni chuqurlashtiradi, qon aylanishini kuchaytiradi, modda almashinishiga yordam beradi. Gimnastika bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatning oshishiga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg'ularini uyg'otadi. [1:214].

Suzish mashg'ulotlari. suzish chog'ida bolalar suvning xossalari bilan tanishadilar. Suzish vaqtida suv muhiti badanni go'yo yengil massaj qilgandek ta'sir ko'rsatadi. Suvda bo'lish vaqt havoning va suvning haroratiga qarab, cho'milish vaqt belgilanadi. Masalan, suvning harorati +22...+25°C, cho'milish davomiyligi 40–60 minut, suv harorati +18...+21°C, cho'milish davomiyligi – 30–40 minut bo'lishi kerak. [1:52].

Bolalar uchun qo'shimcha raqs to'garaklarini tashkil etish, ularga musiqiy - ritmik harakatlarni o'rgatish ham bola rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Musiqa mashg'ulotlarida musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish bolalarning axloqiy ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va jismonan sog'lom o'sishlariga yordam beradi. Eng muhimi, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalaming musiqiy iqtidori, ritmik tuyg'usi shakllanadi, xotirasi charxlanadi. Musiqa, raqs, o'yinlar kichik yoshdagi bolalarga ayniqsa tez ta'sir etadi. Musiqiy-ritmik harakatlar bolaning harakatchan, chaqqon bo'lishiga yordam beradi, qomatining to'g'ri o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaga tetiklik va g'ayrat bag'ishlab, turli emotsiyal hislami uyg'otadi. [2:35-36].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'shimcha matematika mashg'ulotlarning ahamiyati. Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limdagи o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri - bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir. Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyonи chuqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi. Bunda bolalarda matematik tushunchalardan oldin mavjud bo'lgan g'oya katta ahamiyatga egadir. Matematik masalalarni yechish jarayoni o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrleshni talab qiladi. Har bir mustaqil yechilgan masala, tuzilgan masala va masalani yechish jarayonida bolalarda, uchragan qiyinchiliklarni mustaqil yengishida matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. [3:5].

Bunday qo'shimcha pullik xizmatlar va ularning to'lovlarini maktabgacha ta'lim kuzatuvi kengashi tomonidan muhokama qilinadi va bularning barchasi direktor tomonidan tasdiqlanishi shart. Qo'shimcha pullik xizmatlardan foydalanish uchun ota-onalar yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar tomonidan ariza bilan murojaat qilinadi.

Qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi guruhlarda bolalarning soni 25 nafardan ortiq bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Maktabgacha ta'lim xodimlarini ularning asosiy ish vaqtidan tashqari vaqtarda kelishuv asosida qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi guruhlarga jalb qilish mumkin.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

Xulosa qilib shuni aytib o'tishimiz kerakki farzandlarimizning yetuk kadir bo'lib yetishishlarida maktabgacha ta'limning o'rni ahamiyatlidir. Maktabgacha yosh - har bir bola uchun uning hayotidagi juda muhim davr sanaladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy va aqliy rivojlanish bola hayotidagi dastlabki hayot bilimlariga albatta ta'sir etadi. Bog'chadagi tartibli muhit, ertalabki sayr mashg'ulotlar ketma ketligi, muntazam ovqat, kunduzgi uyqu bularning hammasi bolaning tartibli hayot rejimida yashashiga xizmat qiladi. Bulardan tashqari qo'shimcha xizmatlardan ham foydalanish nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Sababi bola biror bir o'zi qiziqadigan sohaning boshlang'ich bilimlarini ola boshlaydi, u raqsga yoki aqliy arifmetikaga yoki gimnastika to'garagiga qatnashib borsa albatta tengdoshlariga nisbatan aqliy va jismoniy rivojlanishi ancha ilgarilab boradi.

Bundan tashqari bolada dastlabki qiziqishlarni ham mana shu yoshdan aniqlab, ma'lum bir soha bo'yicha chuqurroq tayyolash, uning kelajakda, jamiyatda o'z o'rnini topishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2017.
2. G. Sharipova, Sh. Yakubova " Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi". Toshkent 2007.
3. M.E. Jumayev "Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". Toshkent "ILM ZIYO". 2005.
4. Poddyakov N.N. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining xususiyatlari" - M., 1996 .